



SOCIAL BASIS OF FORMING CREATIVE THINKING OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Mamarakhimova Nafisa Ibrokhimovna

Tashkent University of Applied Sciences

senior lecturer

karakulova.2009@mayl.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17292804>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

Student t, primary school, speech, thinking, creative thinking, literature, education, upbringing.

ABSTRACT

The article discusses techniques for improving primary school students' understanding of literary texts and reading literacy, as well as the social foundations for increasing their interest in books.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY ASOSLARI

Mamaraximova Nafisa Ibroximovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

karakulova.2009@mayl.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17292804>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

O'quvchi, boshlang'ich sinf, nutq, tafakkur, ijodiy tafakkur, adabiyot, ta'lim, tarbiya.

ABSTRACT

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tushunish va o'qish savodxonligini oshirish texnikasi, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishning ijtimoiy asoslari haqida fikr yuritiladi.

KIRISH.

Tafakkurning teranligi murakkab savollarning mohiyatigacha kira olish qobiliyatida ifodalanadi. Teran tafakkur qilishga qarama-qarshi bo'lgan sifat yuzaki fikrlash bo'lib, inson mayda narsalarga e'tibor qaratib, asosiy qismni ko'rmaydi.

Mustaqil tafakkur yuritish insonning yangi muammolarni qo'ya olishi va boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan ularni yechish yo'llarini topish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ana shu mustaqillik jarayonida tafakkurning ijodiy tavsifi namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA



V.K.Buryak mustaqil ishni metod sifatida talqin qiladi. B.P.Yesipov mustaqil ishlar o'quv faoliyatining shakli, o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining vositasi sifatida ko'rsatadilar.

V.V.Davidov izlanishlarida mustaqil ishlarga didaktikaning asosiy konsepsiyalaridan biri sifatida qaraladi.

Taniqli ruhshunos olim D.B.Elkonin ishlab chiqqan ijodiy faoliyatni shakllantirishning psixologik konsepsiyasida mustaqil ishlarga shaxsning bilish faolligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmasida quyidagi fikrni aytadi: "Ona tili darslarida o'quvchi mustaqil izlanib, mustaqil hukm va xulosalar chiqarmas ekan, yodlab hosil qilingan bilimlar amaliyotga tatbiq etilmay qolaveradi" [18] deb izohlagan. O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq va tafakkur jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish maktab Ona tili va O'qish savodxonligi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida mazkur muammo o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'llash usuli bilan bog'lab e'tirof etiladi. Shu tufayli ta'lim jarayonida mustaqil ishlar va ularni tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul Haqoyiq", Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarida so'z qadri, so'z qo'llash san'ati, so'z qo'llashning inson hayotida tutgan o'rni haqida ibratli fikrlar bayon qilinadi [9].

Inson maxluqotlar orasida o'zining so'zi, tafakkuri va tarbiyasi bilan ajralib turadi. Til va tafakkur o'zaro uzviy aloqada ekan, kishilarning ma'naviy olamini uning so'zi, nutqi va tafakkuri orqali aniq bilib olishimiz mumkin. Chin inson doimo komillikka intiladi. Komillikning asosiy belgilaridan biri inson tafakkuridir. Shuning uchun ham qadimdan butun mashriq mag'ribda yoshlar tafakkurini rivojlantirishga, ijodiy tafakkurni shakllantirishga alohida ahamiyat berganlar. Chunki tafakkur, insonning aqliy jarayonlarini va ichki fikrlarini ifodalovchi muhim vosita bo'lib, uning nutqi va fikri orqali tashqi dunyoga namoyon bo'ladi. Nutq esda saqlab qolish, qabul qilish, tasavvur qilish, o'z hissiyotlarini tushunish, odobini boshqarish kabi holatlar bilan bevosita bog'liqdir [7].

Alisher Navoiy ta'limni "o'qish va uqish" prinsipi asosida tashkil etishni bundan besh yarim asr muqaddam Farhodni tarbiyalash vositasi sifatida ko'rsatib o'tgan edi. Majnun tarbiyasida ham Navoiy shu yo'lning maqbulligini yana ta'kidlaydi. Majnunni ham 4-5 yoshlar oralig'ida bir "hunarvor usto"ga berilganini, u ham bunda o'z qobiliyatini namoyish etganini shunday ifodalaydi:

Kun bor edikim besh-o'n sabaqni

Anglab evurar edi varaqni.

Navoiy bolalarni tarbiyalashda Farhod va Majnun timsollarida ideal namunalarni ko'rsatdi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1910-yilning oxirlarida Qo'qondagi mahalliy rus-tuzem maktabida muallim bo'lib ishlaydi va 1911-yilda yangi maktab ochib, ta'lim-tarbiya ishlariga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchilarning o'rganayotgan materialni quruq



yod olishi foydasiz ekanligini aytib, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor beradi, ona tili darslarini ko'paytiradi, yangi darsliklar yozadi.

Shunday ekan, ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga o'zbek tilining tuzilishi, tarkibi bilan nutqning uzviyligini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

B.R.Adizovning "Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida ijodiy ta'limni tashkil etish, o'quv materiallarini ijodiy o'zlashtirish, o'quvchilar ijodkorligini tarbiyalash masalalari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan [2].

M.Azimovanning tadqiqot ishlarida o'quvchilar nutqi orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun: o'qish texnikasi bo'yicha harflarni to'g'ri talaffuz etish; so'zlarni to'g'ri o'qish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish; sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish; so'z urg'ulariga rioya qilish; ohangga rioya qilish; ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish kabi talablar qo'yilgan [4].

Sh.U.Nurullayeva "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi" [10] nomli ilmiy-tadqiqot ishida tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'lishi, aqliy sertashabbuslikda va erkin fikrlovchi shaxsning aqliy faoliyatini tashkil etishda o'quv faoliyatining individual, guruhviy usullarning o'zaro uyg'unlashuvi sodir bo'lishi, mazkur faoliyatda kognitiv (bilish), motivatsion, kognitiv (xulq-atvor) va fikr almashinuv singari qirralar birligi ta'minlanishi alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglash malakasi bo'yicha 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish uchun og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi; monologik nutqning ravon bo'lishi, dialogik nutqda ta'sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo'lishi, yozma nutq malakasini shakllantirishda esa 75-80 so'zdan iborat diktant yoza olish. Imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik; ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi, berilgan izohlarning aniqligi, lug'atlarning to'g'ri va aniq berilishi haqidagi talablari ko'rsatilgan [3].

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish, nutq o'stirishning turlari, shakllari, o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda til ta'limida mustaqil ishlar, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, lug'at ustida ishlash masalalari Q.Abdullaeva, B.Adizov, G.Akromova, F.Aminova, O.Aslova, M.Asqarova, M.Jumayev, R.Ibragimov, R.Kabilov, A.Nisanbayeva, N.Nurmuxamedova, Sh.Nurullayeva, M.Rixsiyeva, O'.Ro'ziboyeva, R.Safarova, D.Toshxo'jayeva; boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini, ijodiy faoliyat va ijodiy g'oya, ijodiy tasavvurlarini shakllantirishda o'yin-topshiriqlardan foydalanish muammosi M.Hamdamaeva, S.H.Yaminova, F.O'rinova; til ta'limida mustaqil ishlash, izohli o'qish, badiiy matn orqali ijodiy tafakkurini shakllantirish masalalari bo'yicha X.Bakiyeva, G.Mamatova, U.Masharipova, S.Sariyev, M.Yo.To'raboyeva, T.G'afforova kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida badiiy matn orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri, o'quvchilar ijodkorligi masalalarini



psixologik hodisa sifatida N.Aldoshina, T.Barisheva, V.Bibler, D.Bogoyavlenskaya, N.Ginzburg, D.Elkonin, L.Galiguzova, I.Garkunova, V.Gerbova, K.Golenkina, V.Kapinos, I.Klyuxina, L.Loseva, M.Lvov, A.Mukan, I.Nikolayeva, N.Politova, P.Pustavalov, T.Ramzayeva, N.Sergeyeva, M.Sloveychik, E.Smirnova, N.Svetlovskayalar tadqiqot olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda badiiy matn orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri, ijodiy ta'limni tashkil etish, ona tili va o'qish ta'limida mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ta'limda raqamli ijodkorlik, badiiy-ifodaviylik, ijodkorlikni o'lchash va uning tabiati, ijodiy fikrlash jarayoni muammolari T.Amabile, M.Anderson, H.Galan, J.Guilford, H.Jaime, M.Jefferson, R.Flores, Feyrxoll (Margaret Fairhall), A.Kraft, A.Loannou, R.Savyer, Syu Krum, Djim Rouz, S.Mednik, A.Nevel, J.Shav, S.Timoteu, E.Torrance, D.Trevallion, M.Vollachlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Demak, odamlar o'zaro fikr almashish va ta'sir ko'rsatish jarayonida tafakkurdan foydalanadilar. Tafakkur orqali aloqada bo'lishda har bir kishi o'z bilimlarining ko'p qismini boshqa kishilardan til vositasida oladi. Ta'lim jarayonida olingan bilimlar til yordamida amalga oshiriladi va rivojlanadi. Til va tafakkur orqali odamlar o'z mehnat faoliyatlarini tashkil etadilar va samarali kommunikatsiya o'rnatadilar. Shu sababli, ijodiy tafakkurni barkamollik mezoni sifatida o'quvchilarning ongida shakllantirishning ahamiyati katta ekanligini takidlash lozim.

NATIJA

Tafakkur – bu mohiyatni anglash va uni tushunishga qaratilgan fikriy jarayondir. Bu jarayon natijasida shakllangan mahsulot obraz emas, balki aniq bir fikr yoki g'oya hisoblanadi. Tafakkur – bu kiritilgan yo'nalishli, tadqiqiy, qayta o'zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo'lgan harakatlar va muolajalar tizimi bo'lib, bilish jarayonlarini chuqurlashtirish, tahlil qilish va qayta shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Tafakkur moddiy olamdagi qonuniyatlarni, tabiat va ijtimoiy-tarixiy jarayonlardagi sabab-oqibat aloqalarini hamda psixikasi qonuniyatlarini o'rganishga imkon yaratadi. Aqliy faoliyat natijalari amaliy tafakkur faoliyatining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Amaliy tafakkur, o'z navbatida, insonning kundalik hayotda yoki ish faoliyatida duch keladigan, muammolarni hal qilishga qaratilgan aqliy jarayonlar yig'indisidir. Bu jarayonlarning samarali bo'lishi, avvalambor, insonning aqliy va uning amaliy vazifalarga nisbatan faoliyatini tashkil etuvchi natijalarga bog'liqdir.

Psixologlar tomonidan tafakkurning 2 turi o'rganilgan – empirik va nazariy.

Nazariy tafakkur quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- refleksiya, ya'ni o'quvchi tomonidan o'z harakatlari va ularni masala shartlariga mos kelishini anglanishi;
- masala mazmunini umumiy yechimni topish maqsadida tahlil qilinishi, so'ngra boshqa shunga o'xshash masalalar sinfiga tatbiq etish uchun o'tkazilishi;
- ularni rejalashtirish va ongda bajarish uchun ichki harakat rejasini tuzish;
- taqqoslash, umumiy belgilarini aniqlash natijasida amalga oshiriladi.

Fikrlash jarayonida inson atrof-olamni o'ziga xos aqliy operatsiyalar vositasida o'rganadi. Asosiy fikrlash operatsiyalariga analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish, aniqlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish kiradi.



Hozirgi kunda fanda tafakkurni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Buning uchun o'qituvchidan katta mehnat va mas'uliyat talab etadigan jarayondir. O'qituvchi o'quvchining xohish-istagiga biror narsani o'z tushunchasi bilan tasvirlashning oldini olmasligi, o'quvchilar ijodiylikiga bo'lgan munosabat, ya'ni aniq baholash tizimini qo'llash emas, balki boshqa o'quvchilar bilan taqqoslamasligi, o'quvchining g'ayrioddiy tasvirlari, so'zlari yoki harakatlariga kulmaslik (chunki bu tanqidiy kulgi xafagarchilikni keltirib chiqarishi mumkin), o'quvchi xayolining mantig'ini tushunishga va unga qo'shilishga harakat qilish, o'quvchilarga nisbatan turli xil ijodiy faoliyatga imkon berish (masalan, bir xillikni haddan tashqari oshirib yuborish va ortiqcha ishlashga imkon berish), sinf xonalarida va o'quvchilarning xushchaqchaliqligi, xotirjamlik va quvonch, ularning har bir o'quvchi va ovozni do'stona his-tuyg'ularga bo'lgan ijobiy hissiyotni his qildirish, sinflardagi rang-baranglik, xilma-xillikni va o'quvchilarning harakatlari, tovushlar, vizual rasmlar, ta'mlar, aks etgan va xushbo'y hislar, rivojlanish bo'yicha mashqlar bilan shug'ullanish uchun o'quvchilarning keng tarqalgan qobiliyatlarini o'rganish muhimdir. Bundan tashqari o'quvchilarni ijodiy faollikka chorlash o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan o'qituvchi avvalambor o'quvchilarda taqdim qilinayotgan o'quv materialiga qiziqtirish uyg'otish zarur. Buning uchun u asosiy mavzuni bayon etishda o'quvchilarni qanday yo'l bilan qiziqtirishi mumkinligini bilishi zarur. Oddiy bo'lmagan ma'lumotlarni so'zlab berish, barcha o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lganlarni gapirib berish, so'zlash jarayonida xolisona va aniqlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim qilish, obrazli solishtirishlardan unumli foydalanish kerak.

Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkurga oid bilim va malakalari dastlabki bosqichda dars jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Ular o'qish va nutqni ifodalash jarayonlari yordamida nutq madaniyatining dastlabki ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ularda o'qishga bo'lgan qiziqish shakllanib boradi. Xususan, o'qishga tayyorgarlik jarayonida tafakkur haqidagi bilim, ko'nikmalar bilan birga boshlang'ich ta'lim bosqichi davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan axloqiy sifatlar ham shakllanadi. Bu sifatlar esa o'quvchining xatti-harakatida, sinfdoshlariga bo'lgan munosabatida aks etadi. O'qish jarayonida nutq haqidagi bilimlar o'quvchi ongiga singib boradi.

Boshlang'ich ta'lim yakunida o'quvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi she'rni yoddan aytib bera olishlari shartligi ko'rsatilgan [4]. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar inson va jamiyat, ta'lim sohasi bo'yicha insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojiga oid Vatan tushunchasiga ega bo'lish; davlat tushunchasi, davlatning ramziy belgilarini, ona-Vatan tuyg'usini anglash; O'zbekiston aholisi va milliy tarkibini bilish; mamlakat hayotidagi buyuk sanalarni bilish; axloq va kiyinish me'yorlarini bilish; uy tutishni bilish; mehmonlarga, atrofdagilarga mulozamat ko'rsata olish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shartligi ko'rsatilgan. Albatta, ushbu talablar boshlang'ich sinf o'quvchilarida til, so'z, nutq, fikr, tafakkur ravshanligini taqozo qiladi. Shu bilan birga boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchini keng bilimlar dunyosiga yetaklash, o'qishga bo'lgan munosabatini, o'quv topshiriqlarini bajarish kabilarni amalga oshirish ularda ijodiy tafakkurini shakllantirishga asos bo'ladi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha 5-6 ta gapdan iborat bo'lgan matnni (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratishda matndan gaplarning



mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi; harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish; tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish; matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish; matnda xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash; uyadosh so'zlardan foydalana olish kabi talablari qo'yilgan [3].

Nutq madaniyati o'quvchi shaxsiyatiga hamda ijodiy tafakkurga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladi. Tevarak-atrofnı o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Maktabda darslarni to'liq o'zlashtirishga erishadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini shakllantirishda o'qituvchi va ota-onalarning o'rne benihoya kattadir. O'quvchilar tafakkurini o'stirishda turli xil o'yinlarni tashkil qilish; bajargan mehnatining mazmunini aytib berish; tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lish; tabiiy ohangda gapirish; so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turish; qo'llarini bamaylixotir holatda tutib turish, so'z boyligini rejali asosda, izchil kengaytirib borish, nutq o'stirishga doir tevarak-atrof obyektlari bilan tanishtirish; o'quvchilarning eslab qolishi va to'g'ri talaffuz etishi, so'zlarning ahamiyatini tushunishiga e'tibor bermoq maqsadga muvofiqdir. Chunki, boshlang'ich ta'lim bosqichida bir qancha ijobiy tajribalar to'planishiga qaramay yechimini kutayotgan pedagogik muammolar mavjud.

Ijodiy tafakkurning namoyon bo'lish bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mustaqillik, o'quvchining qayta shakllangan faoliyati, o'z oldilarida turgan muammolarning yangicha yechimlarini ta'minlovchi usullarni qo'llash, o'z ijodiy layoqatlarini namoyon qilish kabilar.

O'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab u yoki bu hodisaga nisbatan qiziqish uyg'otish hamda ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Qiziqish tufayli o'quvchilar muayyan obyektı chuqurroq o'zlashtirishga intilib, u haqidagi bilimlarni alohida intilish bilan o'zlashtirishga kirishadilar.

Ushbu muammo bilan ko'plab pedagog va olimlar qiziqqan. Xususan, Hazrat Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" ("Nafislar majlisi") tazkirasida badiiy ijod asosi va mohiyatini belgilovchi nazariy masalalar yuzasidan ham fikr yuritilgan: mazmun va shakl haqida fikrlar ilgari surilgan.

O'tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Q.Qosimovalar; 80-90-yillarida M.Asqarova, Q.Husanboyeva, M.Hamdama, S.Matchonov, N.Qosimova, B.Turdiyev, B.To'xliyev, Sh.Yusupova, F.O'rinovalar tomonidan ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning nutq va tafakkurini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan, 2000-yillarda G.Ahmedova, A.Hamroyev, U.Masharipova, Sh.Nurullayev, O'.Ro'ziboyeva, Sh.Yuldasheva kabi pedagog olimlarimiz ijodiy tafakkur haqida o'z qarashlarini bayon etishgan.

Bundan tashqari Ya.A.Ponomarev ijodiy fikrlash psixologiyasi haqida alohida darslik yaratgan bo'lib, unda ijodiy fikrlashda psixik jarayonlar haqida alohida ilmiy tadqiqot olib borgan [11].

K.E.Bezukladnikov [6] boshlang'ich sinflarda ingliz tilidan sinfdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etishga doir kuzatishlarni keltirgan bo'lsa, nutq o'stirish uchun o'quvchilarning tafakkuri va fikrlash qobiliyatini tarbiyalash zarur degan masalani o'rtaga



tashladi. Shuningdek, M.R.Lvov [13] nutq fikrlashni rivojlantiruvchi vositasi, deb ta'kidlagan.

E.G.Aliyeva "Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari" nomli qo'llanmasida shaxs ijodiy qobiliyatlari va ularning psixologik jihatlarini shakllantirish masalalari o'rganildi [5].

1995-2000-yillarda L.S.Vygotskiy. L.N.Azarovalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri va uni shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy ijod qilishni juda yaxshi ko'radilar. Bu o'quvchiga o'z shaxsiyatini eng to'liq erkin shaklda ochib berishga imkon beradi. Barcha badiiy faoliyatlar, asosan, faol tasavvurni va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Ushbu funksiyalar o'quvchiga dunyoning yangi, g'ayrioddiy ko'rinishini beradi. Ular tafakkurni, xotirani rivojlantirishga hissa qo'shadi, uning individual hayotiy tajribasini boyitadi, bu esa tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon. Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog'liq tarzda kechadi [12].

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Bu muhim masalalardan biri bo'lib, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va ularning aqliy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tafakkur o'quvchilarning faol tarzda o'quv-biluv faoliyatini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bilishga oid qiziqishlar o'quvchilarda tashabbuskorlikni uyg'otadi. Bu jarayonda o'quvchining o'zi yangi bilimlarni o'zlashtirish usullarini izlab topadi. Natijada ta'lim-tarbiya rivojlanish samaradorligi oshadi. Faol bo'lmagan va hech narsaga qiziqmaydigan o'quvchilarga o'qituvchilar tomonidan kuchli ta'sir o'tkazilib, ularning bilishga oid qiziqishlarini muayyan maqsadga yo'naltirishlari kerak.

Qiziqishlar o'quvchilarda yorqin his-tuyg'ularni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. O'quvchilar o'z qiziqishlarini qondirish uchun obyektiv borliqni chuqurroq o'rganishlari, uning o'ziga xos jihatlarini anglab yetishlari talab qilinadi. O'quvchilarning qiziqishlari qondirilishi natijasida ularda quvonch hissi, ko'proq bilishga intilish mayllari kuchayadi. Agar o'quvchilar o'zlari qiziqqan muayyan narsani o'rgana olmasalar ularda salbiy his-tuyg'ular, o'z kuchlariga ishonmaslik vujudga keladi. Bilishga oid qiziqishlar o'qishning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi. Buni o'quvchilar boshqalardan ko'ra ko'proq his etadilar. Bu o'quvchilar o'zlari uchun nima qiziqarli emasligini aniqlab olgan vaqtlaridan boshlanadi. Bunday narsalar sirasiga dars, o'quv predmeti yoki muayyan kitoblarni kiritish mumkin [18]. Bunga misol qilib hozirgi kunda Milliy dasturga asosan Yangi avlod darsliklari, ya'ni boshlang'ich sinflar uchun Ona tili va O'qish savodxonligi darsliklarini olishimiz mumkin. Bu darsliklar o'quvchilar faoliyatining asosiy maqsadini ifodalab, o'quv jarayonining oson, samarali, yorqin, his-tuyg'ularga boy bo'lishini ta'minlab ularning darslarda toliqmasliklariga asos yaratdi. Yangi avlod darsliklari o'quv faoliyatining turli mayllari bilan o'zaro aloqador bo'lib, o'quvchi dunyoqarashini har tomonlama boyitishga ko'maklashadi. O'quvchilarda ba'zi hodisalarga nisbatan ongli munosabat hosil bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning o'z shaxsiy o'quv-biluv faoliyatlarini boshqarishlari, qo'yilgan maqsadga erishish yo'llari va maqsadlarini aniq anglab olishlariga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda o'zlari qiziqqan sohadagi bilim, ko'nikma, malakalarining muntazam boyishini ta'minlaydi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Xalqaro baholash asosini ijodiy fikrlash tashkil etadi. Ijodiy fikrlash yangi bilimlar va innovatsion g'oyalar yaratishning asosiy omili hisoblanadi [15]. Kreativ fikrlashga odatlanish, nafaqat ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishga, balki ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu fikrlash uslubi, shuningdek, shaxsning intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va o'quvchining bilim olish jarayonida to'g'ri yo'nalishlarni tanlashda, yangi g'oyalar yaratishda, ularning keng dunyoqarashini shakllantirishda yordam beradi. Kreativ fikrlash va unga oid qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchilarning shaxs sifatida o'sishiga va jamiyatda faoliyat yuritishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kreativ fikrlash qobiliyati bilim va tajribaga asoslanadi va aniq bir maqsadga qaratilib, o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishini ko'zda tutadi. Kreativ fikrlash – bu innovatsion, ya'ni yangi, novator, original, nostandart va noodatiy yechimlarni ishlab chiqish jarayonidir. Shuningdek, bu jarayon samarali bo'lishi kerak, ya'ni amaliy, natijaviy, tejamli va optimal yechimlar topish maqsadida amalga oshiriladi. Kreativ fikrlash jarayonida yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan va ilhomlantiruvchi tarzda ifodalash muhim ahamiyatga ega. Bunday fikrlash g'oyalarini ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati ilmiy jarayonning ajralmas qismidir.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ta'lim berish tajribasi va ta'lim siyosati ijobiy o'zgarishlarga imkon yaratadi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida tezkor rivojlanayotgan davrda, yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorlik salohiyatini barcha jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurati oshmoqda. Bu jarayonda, ilg'or xorijiy tajriba amaliyotlarni o'rganish, mavjud tizimni tizimli va har tomonlama tahlil qilish, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentlik va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish katta ahamiyat kasb etadi [16].

Shuningdek, uzluksiz ta'lim muassasalari, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [1] 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish alohida maqsad qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasida "2023-yilda maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi", deb alohida ta'kidlaydi.

MUHOKAMA

Shunday qilib, ijodiy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash murakkab pedagogik muammo bo'lib, o'zida ko'plab omillar va yo'nalishlarni mujassamlashtiradi. Nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash orqali o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim



vositadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchidan qo'shimcha o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni samarali metod va usullarda amalga oshirish talab etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun bilim olish jarayoni poydevor sifatida xizmat qiladi. Shu bois, mazkur sinfdan boshlab o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish zaruriyati yuzaga keladi. Bunday holda, o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish muhim bir masalaga aylanadi. Zero, 1-4-sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va darslarni noan'anaviy usullar bilan o'tkazish, shuningdek, innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ularning umumiy intellektual va shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, kelajakda to'laqonli va har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishlariga xizmat qiladi.

XULOSA

Har tomonlama barkamol va erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati katta. Bu jarayon ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish orqali, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangi g'oyalar yaratish va tanqidiy qarashlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichlarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning bog'lanishli nutqini talab darajada rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli ishlarga katta e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, boshlang'ich sinfdan Ona tili va O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash orqali nutqni rivojlantirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni ustuvor tamoyillar asosida tashkil etish, o'quvchilarning nutqiy malakalarini shakllantirishda samarali natijalar beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. Адизов Б.Р. бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: пед.фан.номз. ... дисс. – Т.: 2002. – 276-б.
3. Азаров Ю.П. Болаларни севиш санъати. – Т.: Ўқитувчи. 1992. 197-б.].
4. Азимова М. Синфдан ташқари ўқиш. –Т.: Авлониё ХТХҚҚТМОМИ. 2002. 20-б.
5. Алиева Э.Г. Ижодий қобилият ва унинг ривожланиш шартлари. Таълим фаолиятини психологик таҳлил қилиш. М.:ИПРАН. 1991
6. Безукладников К.Э. Самостоятельная работа учащихся начальных классов в кабинете английского языка во внеурочной время. – Москва.: 1990. Стр-16.



7. Иномова М.О. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье. Дисс.автореф. ...докт.пед.наук. – Т.: ЎзПФТИ, 1998. Стр-41.
8. Мингбоева Б.У. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик воситасида бадий адабиёт намуналарига қизиқишни шакллантириш. (PhD). – Т.: 2022. 12-б.
9. Мо'minoва S. Nutq madaniyati. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005. 4-б.
10. Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш усуллари. Пед.фан.номз. ...дисс. –Т.: 2007. 148, 172-б.
11. Пономарев Я.А. Иждий фикрлаш психологиясию М.: 1960
12. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Darslik. – Т.: “Innovatsiya Ziyo”, 2020. 43b.
13. Шодмонова Ш.С. Талабаларда мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш. – Т.: 2001. – 80 б.
14. Ibrokximovna, M.N. (2023). Working on vocabulary in elementary school native language and reading education classes. *Current research journal of pedagogics*, 4(09), 22-29.
15. Ibroximovna, M.N. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanining didaktik imkoniyatlari. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 391-394.
16. Mamarakhimova, N. (2024). Growing oral speech through the formation of creative thinking of primary school students. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 106-111.
17. Mamaraximova, N.I. (2025). Badiiy matn asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi. *Inter education & global study*, (1 (1)), 133-143.
18. Тўхлиев Б. ва бошқалар. Сўз туркумлари ва нутқ ўстириш методикаси. – Т.: ТДПУ, 2008. 70-б.
19. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2008). Emotional intelligence: New ability or eclectic traits? *American Psychologist*, 63(6), 503–517. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.63.6.503>
20. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199–218. <https://doi.org/10.1080/03075070600572090>
21. Otamuratov, S., & Ochilova, D. (2022). The role of emotional intelligence in maintaining psychological and physical well-being. *Uzbek Journal of Psychology and Education*, 2(1), 112–118.
22. Paul, R., & Elder, L. (2002). *Critical thinking: Tools for taking charge of your professional and personal life*. Pearson Education.
23. Paul, R., & Elder, L. (2008). *The miniature guide to critical thinking: Concepts and tools*. Foundation for Critical Thinking.
24. Pishghadam, R., Khajavy, G. H., & Navari, S. (2021). Developing English as a foreign language learners' emotional intelligence through journaling. *Journal of Psycholinguistic Research*, 50(4), 847–864. <https://doi.org/10.1007/s10936-020-09737-2>



25. Tsui, L. (2002). Fostering critical thinking through effective pedagogy: Evidence from four institutional case studies. *The Journal of Higher Education*, 73(6), 740–763. <https://doi.org/10.1080/00221546.2002.11777179>
26. Van den Berg, I., Admiraal, W., & Pilot, A. (2006). Peer assessment in university teaching: Evaluating seven course designs. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 31(1), 19–36. <https://doi.org/10.1080/02602930500262346>
27. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and learning second language listening: Metacognition in action*. Routledge.
28. Zeidan, F., Johnson, S. K., Diamond, B. J., David, Z., & Goolkasian, P. (2010). Mindfulness meditation improves cognition: Evidence of brief mental training. *Consciousness and Cognition*, 19(2), 597–605. <https://doi.org/10.1016/j.concog.2010.03.014>
29. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (Eds.). (2004). *Building academic success on social and emotional learning: What does the research say?* Teachers College Press.